



PRESERVATION OF MAHALLAS CONSISTING OF COURTYARD HOUSES: THE CASE OF TASHKENT REGION AND TASHKENT CITY (LEGAL AND SOCIO- PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Dildora Koraboyeva

Senior Lecturer (PhD), Department of "Social Sciences, Humanities, and History"

Tashkent International University of Financial Management and Technologies

careful_dildora@mail.ru

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, integration, traditional neighborhood, cultural heritage, urban planning, Tashkent, Uzbek law, social philosophy, ethnohistorical borders, ethnomathology.

Received: 14.01.26

Accepted: 15.01.26

Published: 16.01.26

Abstract: This scientific article analyzes the legal framework and socio-philosophical aspects of the preservation of the neighborhoods of the Tashkent region and the city of Tashkent, consisting of courtyard housing with a traditional centuries-old history. The penetration of Western traditions, influenced by globalization processes, also causes a radical turn in the traditions of Uzbek urban planning. As each nation, elat and people have their own training, religion, culture, customs, there are also peculiarities in the way they live and live. The article thoroughly studied the legal framework governing the preservation and protection of traditional Uzbek courtyard housing in the Republic of Uzbekistan. Proposals have been formed to improve the system of preservation of traditional neighborhoods in Tashkent region and Tashkent City.

HOVLILI UY-JOYLARDAN IBORAT MAHALLALARNI ASRAB QOLISH: TOSHKENT VILOYATI VA TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA (HUQUQIY VA IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)

Dildora Qoraboyeva

"Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

careful_dildora@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: globallashuv, integratsiya, anʼanaviy mahalla, madaniy meros, shaharsozlik, Toshkent, Oʻzbekiston qonunchiligi, ijtimoiy falsafa, etnohududiy chegaralar, etnomadaniyat.

Annotatsiy: Ushbu ilmiy maqolada Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi anʼanaviy koʻp asrlik tarixga ega boʻlgan hovlilari uy-joylardan iborat mahallalarni saqlab qolishning huquqiy asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari taʼsirida Gʻarb anʼanalarining kirib kelishi oʻzbek shaharsozligi anʼanalarida ham tub burilishga sabab boʻlmoqda. Har bir millat, elat va xalqning oʻziga xos mashgʻulotlari, dini, madaniyati, urf-odatlarini boʻlgani kabi, yashash va turmush tarzida ham oʻziga xosliklar mavjud. Maqolada Oʻzbekiston Respublikasida anʼanaviy oʻzbek hovlilari uy-joylarini saqlab qolishni va himoya qilishni tartibga soluvchi huquqiy asoslar atroflicha oʻrganildi. Toshkent viloyati va Toshkent shahridagi anʼanaviy mahallalarni saqlab qolish tizimini takomillashtirish boʻyicha takliflar shakllantirilgan.

СОХРАНЕНИЕ МАХАЛЛЕЙ, СОСТОЯЩИХ ИЗ ДОМОВ С ДВОРАМИ: НА ПРИМЕРЕ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ И ГОРОДА ТАШКЕНТА (ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Дилдора Корабоева

Старший преподаватель (PhD) кафедры «Социально-гуманитарные науки и история»

Ташкентского международного университета финансового управления и технологий

careful_dildora@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, интеграция, традиционная махалля, культурное наследие, градостроительство, Ташкент, законодательство Узбекистана, социальная философия, этнорегиональные границы, этнокультура.

Аннотация: В данной научной статье анализируются правовые основы и социально-философские аспекты сохранения в Ташкентской области и городе Ташкенте махалли с традиционной многовековой историей, состоящих из домов с дворами. Проникновение западных традиций под влиянием процессов глобализации также вызывает радикальный поворот в традициях узбекского градостроительства. Так же, как у каждого народа, нации и народа есть свои занятия, религия, культура, обычаи, существуют свои особенности в образе жизни и быта. В статье подробно рассмотрены правовые основы, регулирующие сохранение и защиту традиционных узбекских дворовых

жилищ в Республике Узбекистан.
Сформулированы предложения по
совершенствованию системы сохранения
традиционной махалли Ташкентской
области и города Ташкента.

Kirish. Dunyoda kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlari barcha etnomadaniyatlar hamda ijtimoiy hayot sohalariga ziddiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Ular, bir tomondan, shu paytgacha lokal, milliy va etnohududiy chegaralar doirasida shakllangan hamda rivojlanib kelgan etnomadaniyatlar, ijtimoiy hayot sohaları va inson faoliyati doiralari kengaytirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar pog'onasiga olib chiqayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy boyliklarni, uzoq asrlar davomida yaratilgan tarixiy-madaniy merosni, an'analarni saqlab qolishni muammoga aylantirmoqda.

Bugun dunyoning yirik ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarda tarixiy-madaniy meros muammosiga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQSHdagi Etnografiya va arxeologiya institutida qadimgi sivilizatsiyalarning tarixi, arxeologik merosi, Rossiyadagi Etnografiya institutida MDHdagi xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, tarixiy etnografiyasi, tarixiy-madaniy meros va hozirgi davr, madaniy hayotdagi demokratik o'zgarishlar, milliy madaniyatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari tadqiq etilmoqda.

O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrash, unga tayanish va shu asosda milliy taraqqiyotga erishish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda o'zbek tarixiy-madaniy merosini o'rganish, asrash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish va bu sohaga kadrlar tayyorlashga oid 120 ga yaqin Farmon hamda qarorlar, davlat dasturlari qabul qilindi. Tarixdan ma'lumki, Hazrati Bashir, Hastimom, Eski juva, Ko'kcha, Samarqand darvoza, Suzuk ota, Mansur ota, Qo'yliq ota, Iyk ota, Langar ota, Bektemir ota, Zangi ota, Shayx Zayniddin bobo, Shayx Xovandi Tohur kabi o'zbek mahallalari, ya'ni hovli-joylar o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi bo'lib kelgan. "Mahalla xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'priki bo'lishi kerak. Odamlarning quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo'lish mahallaning asosiy vazifasidir" [1].

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Imom Buxoriy nomidagi Islom instituti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi. 2018-yildan Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivali, 2019-yildan Xalqaro maqom hamda baxshichilik san'ati festivallari, Qur'oni Karimni qiroatli o'qish tanlovlarini o'tkazish yo'lga qo'yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 20-dekabrda PQ-4068-son “Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 22-aprelda PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekistonning poytaxti Toshkent va uning atrofi tobora zamonaviy shaharga aylanib bormoqda. Ko‘p qavatli binolar, keng ko‘chalar, yangi infratuzilma loyihalari bilan bir vaqtda, an‘anaviy hovlilari uy-joylardan iborat mahallalar (masalan, Eski shahar, Suzuk ota, Qo‘yliq, Iyk ota, Hazrati Imom (Qaffol Shoshiy), Zangi ota, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Sergeli va viloyatdagi qadimiy mahallalar) o‘zining o‘ziga xosligi va tarixiy qiyofasini yo‘qotish xavfi ostida qolmoqda. Ushbu binolar nafaqat me‘moriy, balki chuqur ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy ahamiyatiga ega bo‘lib, mahalliy aholi hayotining an‘anaviy tartibi, qo‘shnichilik munosabatlari va oilaviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Shahar qurilishining zamonaviy jarayonlari, aholi sonining o‘sishi va infratuzilma ehtiyojlari an‘anaviy mahallalarni yo‘q qilish yoki ularning qiyofasini tubdan o‘zgartirishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu hududlarni asrab qolish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Toshkent viloyati va shahridagi hovlilari uy-joy mahallalarini saqlashning qonuniy imkoniyatlarini va ularni himoya qilish zaruratining ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini o‘rganishdir.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni qayta tiklash va asrab-avaylash jarayonlari kuchaydi. Shaharlarning muhim qismi bo‘lgan an‘anaviy mahallalarni yo‘qotish nafaqat me‘moriy obidalarni, balki milliy xotira va madaniy kodlarni ham yo‘qotish demakdir.

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi qonunchiligida madaniy meros, shaharsozlik va yer munosabatlarini tartibga soluvchi normalarni tahlil qilish va ularning an‘anaviy mahallalarni himoya qilishdagi samaradorligini baholash. Hovlilari uy-joy mahallalarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini, ularning jamiyat hayotidagi rolini va o‘ziga xosligini aniqlash. Bu turdagi mahallalarni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Maqolada tarixiy-madaniy meros xalqning, millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini bilishga, saqlab qolishga qaratilgan hayotiy tajribalari vorisiyligini ta‘minlash orqali milliy madaniyatlar o‘rtasidagi integratsion aloqalarni kengaytirish va lokal madaniyatlarning

umuminsoniy voqelikka aylanishiga imkoniyat yaratishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini asoslangan;

tarixiy-madaniy meros fenomenining milliy identiklikka, milliy taraqqiyotga, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri, transmilliy belgilari va ijtimoiy-ekzistensial xususiyatlarining ijtimoiy ongga transformatsiyasi shaxslararo muloqot natijasi sifatida til hamda kommunikatsiyaga bog'liqligi ochib berilgan;

globallashuv jarayonlarining tarixiy-madaniy merosga ziddiyatli ta'siri, undagi integratsiyaga oid ijobiy jihatlarni va umuminsoniy tajribalarni milliy taraqqiyotga yo'naltirish mumkinligining real imkoniyatlariga bog'liq metodologik-innovatsion hamda zamonaviylik va an'anaviylikka oid aksiologik-strukturaviy asoslari isbotlangan;

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy va demokratik yangilanishi sharoitida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda tarixiy-madaniy merosdan foydalanishda tarixiy tafakkur, bilim va o'z-o'zini anglashning ijtimoiy zaruriyat sifatida amal qilishi gnoseologik jihatdan obyektivlik hamda tadrijiylikka bog'liqligi asoslangan.

Maqola Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi tarixiy shakllangan an'anaviy hovlilari uy-joy mahallalariga qaratilgan. Huquqiy tahlil O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi doirasida olib boriladi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil esa o'zbek madaniyati, milliy qadriyatlar va jamiyat tuzilishiga asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Maqolada hujjatlarni tahlil qilish, qonuniy normalarni o'rganish, mahalliy aholi va mutaxassislar bilan chuqur intervyular va anketa-so'rovnoma o'tkazish, shuningdek, maydonda kuzatishlar olib borishdan iborat turli metodlardan foydalanildi. Huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda "O'zbekiston Respublikasining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni, "Arxitektura va shaharsozlik to'g'risida" gi Qonuni, Yer kodeksi, Turar-joy mulkchiligi to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, Toshkent shahrini rivojlantirish konsepsiyalari va umumiy rejalari o'rganildi.

MDHda muammoning ayrim ijtimoiy-falsafiy va tarixiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy muammolarini N.A.Berdiyev, V.V.Razanov, A.F.Losev A.A.Ivin, M.T.Stepanyans, A.A.Ignachenko, A.Ya.Gurevich, K.Baller, C.N.Artanovskiy, L.P.Karsavin, N.I.Kareyev, L.N.Gumelev, V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, R.Ameriddinova, S.A.Tokarev, G.P.Fedotov, I.I.Ilyin, M.M.Baxchin kabilar tadqiq etishgan. Ularning diqqati, asosan, nasroniylik, Yevropa va rus xalqi tarixiy-madaniy merosini o'rganishga qaratilgan bo'lib, XXI asrda ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlarning mohiyati ochib berilgan, totalitar tuzumning xalq madaniyatiga aks ta'siri asoslangan.

O'zbekistonda muammoning tarixiy, arxeologik va etnologik jihatlarini tarixchilar G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, A.Asqarov, A.Sagdullayev, K.Shoniyozov, B.Ahmedov, R.Rajabov, R.Shamsuddinov, ijtimoiy-falsafiy va antropologik muammolarini faylasuflar M.Xayrullayev, J.Bozorboyev, A.Abdusamedov, B.Aliyev, V.Alimasov, Y.Jumaboyev, I.Jabbarov, Q.Yo'ldoshev, G.Najimov, G.Navro'zova, O.Nishonova, D.Norqulov, R.Shodiyev, A.Erkayev, M.Qodirov, U.O'tanova kabilari o'rganishgan. N.Musayeva hadislarning sotsioantropologik mohiyatini, U.Qoraboyev xalq bayramlarining tarixiy-madaniy hayotdagi o'rnini, S.Ismoilov madaniy merosdagi vorisiylik muammolarini, E.Yusupov ma'naviy-axloqiy meros masalalarini, A.Valiyev shaxs ma'naviy meros dialektikasini, S.Shermuhammedov hamda A.Ochildiyevlar jamiyat va shaxs o'rtasidagi uyg'unlikning shakllantirishda tarixiy-madaniy tajribalarning ta'sirini tadqiq etishgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida milliy-madaniy boyliklarni, qadriyatlarni asrashning dolzarb masalalariga katta e'tibor beriladi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida bu ilmiy izlanishlar milliy o'zlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu borada akademiklar B.Ahmedov, K.Shoniyozov, G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze, professorlar A.Abdusamedov, D.Alimova, V.Alimasov, H.Aliqulov, O.Musurmonova, D.Norqulov, R.Rajabov, R.Shamsutdinov, A.Erkayev, A.Yunusov, U.Qoraboyev, N.Hakimov, fan nomzodlari M.Karim, M.Safarboyev, M. Hamzayeva kabi ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar o'tkazishgan. [6; 8] Muammoning ilmiy-falsafiy jihatlarini E.Yusupov, A.Valiyev, M.Xayrullayev, S.Shermuhammedov, V.Alimasov, G.Najimov, A.Yuldashev, U.Qoraboyev, O.Nishonova, O.Musayev, U.O'tanova va F.Atamuradovalar maxsus tadqiq etishgan. Agar E.Yusupov muammoni ma'naviy-axloqiy tarbiya, barkamol shaxsni voyaga yetkazish bilan bog'lasa, A.Valiyev asarlarida u jamiyatning intellektual va ma'naviy rivojlanishi, S.Shermuhammedov jamiyat va shaxs o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni madaniyat, ta'lim va ma'naviyat bilan bog'lab o'rganish orqali ochib beradi. G.Najimov o'zbek etnoan'analari bilan madaniyat negizida shakllanayotgan mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotining o'ziga xos tomonlarini o'rgangan, A.Yuldashev O'zbekistonda madaniyat sohasini boshqarish bilan bog'liq transformatsiya jarayonlari va qonuniyatlarini, Sh.Samatov mustaqillikka o'tish davrida milliy madaniyatda yuz berayotgan yangilanishlarning xususiyatlarini, U.Qoraboyev va O.Nishonovalar etnomadaniyatning genezisi, funksional xususiyatlari va milliy-madaniy taraqqiyotga ta'siri masalalarini, U.O'tanova esa mustaqil rivojlanishga o'tish jarayonlarida xalq madaniyati ravnaqining o'ziga xos yo'llarini tadqiq qilishgan. Shunga qaramay muammo yangicha yondashuv va ilmiy yechimlarni talab etaveradi.

Chuqur intervyular: Toshkent va viloyatdagi an'anaviy mahallalarda yashovchi 25 ta uy xo'jaligi vakillari, 5 nafar mahalla raisi, 3 nafar me'mor-shaharsozlik mutaxassisi va 2 nafar madaniy merosni muhofaza qilish sohasidagi davlat organi xodimi bilan yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Intervyular mahalliy aholining qadriyatlari, himoya mexanizmlari va muammolar haqidagi nuqtai nazarlarini o'rganishga qaratilgan.

- Kuzatish: Tanlangan mahallalarda (masalan, "Eski Qo'yliq", "Chorsu atrofi") vizual kuzatishlar olib borilib, me'moriy holat, infratuzilma, jamoat joylari va ijtimoiy hayot hujjatlashtirildi.

- Misollar orqali tahlil: Muvaffaqiyatli saqlanib qolgan va o'zgarishga uchragan mahallalarning aniq holatlari o'rganildi.

- So'rovnoma: 1500 nafar mahalla aholisi orasida hovlili uy-joyda yashashning afzalliklari va kamchiliklari, merosni saqlash istagi, modernizatsiya ehtiyoji haqidagi fikrlarni o'rganish uchun anketalar tarqatildi.

- Statistik ma'lumotlarni tahlil: Toshkent shahar hokimligi va Davlat statistika qo'mitasining demografik o'zgarishlar va qurilish faoliyati bo'yicha ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish: Barcha sifatli ma'lumotlar matnli tahlil qilish usuli yordamida kodlangan va guruhlashtirilgan. So'rovnoma natijalari statistik dasturlar yordamida qayta ishlangan. Huquqiy hujjatlar tahlili esa mazmuniy tahlil usuli asosida amalga oshirilgan.

Muhokama va natijalar. Hozirgi kunda hovlili uy-joy mahallalari saqlanib qolishiga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda: mulkchilik munosabatlari (ko'p hollarda yer va uy-joy turli merosxo'rlarga tegishli), qulaylik darajasining pastligi (kommunal xizmatlar), shaharning markaziy qismlarda yer narxining oshishi, qurilish kompaniyalari bosimi, shuningdek, bu hududlarni muhofaza qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha aniq konsepsiya va qonuniy mexanizmlarning yetishmasligi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, hovlili uy-joy mahallalarini saqlab qolish uchun O'zbekiston qonunchiligida ma'lum huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, ular amalda to'liq qo'llanilmaydi va me'yoriy-huquqiy bazada bo'shliqlar mavjud. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan, bu mahallalar mahalliy madaniy va milliy o'ziga xoslikning moddiy ifodasi, yaqin qo'shnichilik munosabatlarining tayanchi va barqaror shahar atrof-muhitining muhim elementi hisoblanadi.

Madaniy merosni muhofaza qilish qonunchiligi: O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (2014 y.) faqat alohida ro'yxatga olingan me'moriy yodgorliklarni himoya qiladi. Butun bir tarixiy muhit yoki mahallani muhofaza

qilish mexanizmlari kuchsiz. Shuning uchun, alohida uy yodgorlik hisoblanmasa, butun mahallaning qiyofasini o'zgartiruvchi yangi qurilishga qonuniy to'siq yo'q.

ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasini va bog'-rog' san'ati asarlari (bog'lar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san'at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafiya, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv, qo'lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo'lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo'lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o'yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari;

madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari;

moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;[2].

O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-

hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir" deyilgan.

Bundan kelib chiqqan holda har bir tarixiy tarkib topgan shahar va viloyatning o'ziga xos bo'lgan bo'lgan hududi va shu hududgagina xos bo'lgan ko'p asrlik an'analari, qadriyatlari, tili, sheva va lahjasi, marosim va urf-odatlari, milliy va diniy qadriyatlari mavjud. Jumladan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining hududlari ham daxlsiz va bo'linmasdir. Toshkent shahri tarixiga oid bo'lgan toponimlar, mahalla, daha, ko'cha, qabriston va masjidlar, tarixiy shaxslarga oid ma'lumotlar haqida batafsil ma'lumotlarni Abdulaziz Muhammadkarimovning "Toshkentnoma" kitobida ko'rsatilgan. Toshkent-Farg'ona hududlarida Qarluq lahjasi keng yoyilgan. Toshkentdagi asosiy dahalardagi 4 qabriston islom diniga e'tiqod qiluvchi aholiga tegishlidir. Bu maqbaralarning nomlari esa Qaffol Shoshiy ya'ni Hazrati Imom, Shayx Zayniddin bobo, Zangi ota Himmatiy, Shayx Xovandi Tohurlar bilan bog'liq. Shu jihatga ko'ra Toshkentning "Toshkentnoma" kitobi kitobida ko'rsatilgan barcha daha, ko'cha, qabriston, masjid, maqbara, bozor, mahallalari o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi hisoblanadi va ularni asrab qolish esa O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Tarixiy-madaniy meros agentligi, Madaniyat Vazirligi, O'zbekiston Musulmonlari idorasining zimmasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida ham O'zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri ekanligi belgilangan. Bulardan kelib chiqqan holda Yangi O'zbekistonda tarixiy shaharsozlik an'alarini va o'zbeklarga xos bo'lgan so'rili, ayvonli, daxliz va bolaxonali, tandir-o'choqlariga ega bo'lgan hovlili an'anaviy uy-joylarni asrab qolish dolzarb vazifadir.

"City" so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "shahar" degan ma'noni anglatadi. 2016-yilga qadar mavjud bo'lgan O'zbekistonning va Toshkent shahrining xaritasida hech qanday "City" mavjud bo'lmagan. Citylar o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga ham kiritilmagan. O'zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida" gi qonun bilan berilgan bo'lib, bu hol O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z huquqiy mustahkamlanishini topgan. Bu qonun ona tilimizning rivojlanishi, taraqqiyoti va o'ziga xos boyligini namoyish etish uchun keng imkoniyat yaratdi, rasmiy hujjatlar, darsliklar va nashrlarning ona tilida yozilishiga sharoit yaratib, milliy qadriyatlar va ma'naviyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi hududidagi ko'chalar, mahallalar, uy-joylar, shahar, tuman, istirohat bog'larining nomlari ham o'zbek tilida nomlanishi va nafaqat nomlanishi balki, tashqi qiyofasi ham o'zbeklarga xos an'analarni saqlab qolgan bo'lishi muhimdir.

O'zbek xalqi qadimdan o'troq dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'bonlik, asalarichilik, gulchilik, novvoylik, hunarmandchilik kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanib kelgan. Bu mashg'ulotlar bilan esa faqatgina hovlili uy-joylardan iborat an'anaviy mahallalarda yashovchi o'zbek xalqi shug'ullangan. Citylarda esa dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilik, parrandachilik, novvoylik, asalarichilik, gulchilik, hunarmandchilikning aksariyat turlari bilan shug'ullanishning imkoni yo'q. Qishloqlar va ovullarda yashovchi xalqdan tashqari shaharlarda yashovchi xalq ham dehqonchilik va chorvachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, gulchilik kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi.

G'arb madaniyati va uning o'ziga xos ko'plab ijobiy jihatlari mavjud bo'lganidek, Sharqona madaniyatimizga ham xos bo'lgan ijobiy jihatlari ko'plab topiladi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatining aholisi orasida ko'plab dehqon, chorvador, bog'bon, baliqchi, hunarmand, novvoylar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega".

Gerbimizdagi paxta va bug'doy dalalarining aks etishi ham o'zbek xalqining o'troq dehqonchilik bilan qadimdan shug'ullanib kelganligidan dalolatdir. Toshkent viloyati O'rta Chirchiq (Toshkent shahri Yangi Hayot) tumanidagi Xo'ja Uchqun, Xo'ja Mahalla, Jaloyir, Mehnat mahallalarida yashovchi 90% aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik, chorvachilik va parrandachilik ekanligi aniqlandi. Bu hududlar aholisi orasidagi respondentlarimiz "City" larda bu yerlik xalq o'zlarining sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanolmasligi sababli, hovlili uy-joylardan iborat an'anaviy va vorisiylik asosida qolib kelayotgan mahallalarini saqlab qolish zarurligini anketa-so'rovnomalarida yozib bergan.

2026-yil O'zbekistonda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev parlament va xalqqa yo'llagan murojaatnomasida. Davlat rahbari bugungi kunda jamiyatda turli xil fikr va qarashlar bo'lishi tabiiyligi, bu — demokratiyaning birlamchi talabi ekanini ta'kidladi. "Ammo millati, tili va dinidan qat'i nazar, 38 millionli xalqni birlashtiradigan ulug' bir g'oya bor. U ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir", — dedi u.

"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" da Prezidentimiz aytganidek, yuqorida ko'rsatilgan mahallalarda yashovchi aholining fikrlarini o'rganish, chorvador va dehqonlarni qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini band qilgan fuqarolarga ko'mak berish mutasaddi tashkilotlarning asosiy maqsadi bo'lishi zarur. Prezidentimiz ta'lidlaganidek, Vatan manfaati, xalq manfaati yo'lida Toshkent viloyatining O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq va Yuqori Chirchiq hududida yashovchi aholining 90-95% qismi dehqon va chorvador ekanligini inobatga olgan

holda, ularning ko‘p asrlik an‘ana va mashg‘ulotlarini hurmat qilish, asrab qolishga ko‘maklashish, hovlili uy-joylardan iborat an‘anaviy mahallalarini kelajak avlodlarga qoldirishlari uchun notarius idoralarida kadastrlarini rasmiylashtirishlariga yordam berilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”, - deyilgan. Hech qaysi mafkura, xattoki “Toshkent shahri va Toshkent viloyatining daxlsiz va bo‘linmas hududlarini citylashtirish” ham mafkura bo‘lolmaydi. Milliy mafkura — muayyan millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini asoslab beruvchi g‘oyalar va qarashlar tizimi. Ko‘p hollarda Milliy mafkurani bitta millat yoki xalqning mafkurasi deb tushunilmaydi, u muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasi ma’nosini ham anglatadi. Chunki "milliy" sifati "millat" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, faqat muayyan etnik birlikni emas, balki muayyan "jamiyat" yoki "davlat" ma’nosini ham ifodalashi mumkin.

Milliy mafkura tushunchasi ham O‘zbekistonda yashab, faoliyat ko‘rsatayotgan barcha millat vakillariga tegishlidir. Milliy mafkuraning o‘zagini O‘zbekistondagi turli millat va elat, din va e’tiqod vakillarini mamlakatimizda ozod va obod vatan barpo etish uchun birlashtirish, xalqlarni o‘zaro hurmat va hamkorlikka chorlash, olijanob maqsadlarni ko‘zlash kabi umuminsoniy tamoyillarga aylangan g‘oyalar tashkil etadi. Milliy mafkura o‘zligimizni, muqaddas an‘analarimizni anglash tuyg‘ularini, xa-lqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazi-falarni ifoda etadi. Milliy mafkura har qanday millatchilikdan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan xolidir. U jamiyatimizdagi har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qati nazar, ularning barchasini yagona maqsad atrofida birlashtiradigan; xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni buyuk istiqbol sari chorlaydigan ma’naviy omildir. Milliy mafkura haqida gapirganda yana shuni ham nazarda tutish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi plyuralizm, fikr va qarashlar erkinligi tamoyillarini to‘liq ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida “Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”, deyilgan. Mafkurada bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymay, Milliy mafkurani xalqimiz ongiga singdirish zamon talabidir. [5]

Toshkent shahrida bir kunda 2 ming 300 tonna chiqindi yig‘ib olinsa, shundan 3 tonnaga yaqini nondan iborat. Toshkent shahrida bir kunda 3 tonna non chiqindiga tashlanadi. Bu haqda O‘zA xabar berdi. Shahar “Maxsustrans” ishlab chiqarish boshqarmasi bosh inspektori Ismoil Sagdullayevning ma’lumot berishicha, ayni paytda poytaxtda eng ko‘p chiqindiga tashlanadigan

mahsulot bu — non va oziq-ovqat mahsulotlaridir. Bu mahsulotlarni yildan yilga chiqindiga tashlash holatlari ortib bormoqda.

Qayd etilishicha, Toshkent shahrida bir kunda 2 ming 300 tonna chiqindi yig'ib olinsa, shundan 3 tonnaga yaqini nondan iborat.

Citylashtirish natijasida chorvachilik, parrandachilik bilan shug'ullanish darajasining pasayib borayotganligi sababli, Toshkent shahrida 2 ming 300 tonna nonning chiqindiga tashlanayotganligi, quvurlarga ham non ushoqlarining va oziq-ovqatlarning tashlanayotganligi “City” ga oid shaharsozlikni qayta ko'rib chiqish hamda an'anaviy mahallalarni saqlab qolishni taqozo etadi. Toshkent viloyatidagi Jaloyir, Xo'ja Uchqun, Xo'ja mahalla, Mehnat, Qo'qonovul, Bolg'ali, Surankent, Parkent, Kumushkon, Zarkent, Ko'korol, Bo'ka, Zafar, Oybek, Oqqo'rg'on, Toshovul, O'rtasaroy mahallalaridagi hamda Toshkent shahridagi Ahmad Yassaviy, Muxtor Ashrafiy, Besh bola, Boysun mahallalaridagi hovlili uy-joylarda yashovchi va chorvachilik, parrandachilik bilan shug'ullanuvchi aholi orasida nonni isrof qilish holatlari kuzatilmadi. Bu esa xalqning chorvachilik va parrandachilik bilan shug'ullanishi bilan bog'liq.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida” gi hamda “Yer osti boyliklari to'g'risida” gi Qonunlar talablariga zid ravishda tabiatga 2016-2025-yillar oralig'ida ko'plab zarar yetkazilgan. Citylar qurilishida esa 3,5-20 tonna vaznga ega yuk mashinalardan foydalanilgan. 3,5-20 tonnadan og'ir bo'lgan Man, Howo, Shacman, Sinotruk kabi yuk avtomashinalari tomonidan noqonuniy ravishda qum, shag'al, tuproqlar Citylar qurilishiga sarflangan. Eng achinarlisi shundaki, bu yuk mashinalari “Toshkent viloyati yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi” kabi korxonalarga tegishlidir. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-noyabrdagi 666-son qaroriga asosan zararlar miqdori milliardlarni tashkil etmoqda. 2024-yil 1-may kuni Prezident farmoni bilan Chirchiq, Sangzor, Zarafshon, Norin daryolari o'zanlarida noruda materiallarni qazib olishga muddatsiz moratoriy joriy etilgan.

2026-2025-yillarda Toshkent shahri va Toshkent viloyati aholisining demografik holatiga oid ma'lumotlar quyidagilar: Toshkent shahri va viloyati uchun 2016-2025-yillardagi tug'ilish va o'lim sonlari bo'yicha batafsil ma'lumotlar bevosita umumiy Statistik portal (stat.uz) yoki viloyat/shahar statistika boshqarmalari (toshstat.uz, toshvilstat.uz) saytlaridan topilishi mumkin, lekin umumiy ma'lumotga ko'ra, Toshkent viloyati aholisi 2025-yil 1-oktabr holatiga 3,148 mln.dan oshdi va shahar aholisi 3,112 mln.ga yetdi. Toshkentdagi mavjud hovlili uy-joylardan iborat an'anaviy mahallalar bu aholi sig'imini qamrab oladi va vorisiylik asosida kelajak avlodlarga bu uy-joylarning qoldirilishi ham zarurat hisoblanadi.

Xulosa. Birinchidan, hovlili uy-joy mahallalarini asrab qolish shunchaki binolarni saqlash emas, balki ma'naviy va madaniy merosni, ijtimoiy kapitalni va barqaror shahar tuzilmasini

tiklash va rivojlantirishdir. Buning uchun huquqiy bazani takomillashtirish, jamoatchilikni jalb qilish va integratsiyalashgan rejalashtirish yondashuvlarini qo'llash zarur.

Ikkinchidan, shaharsozlik normalari: Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun (1996 y.) umumiy tamoyillarni belgilaydi, ammo an'anaviy mahallalarni saqlash uchun maxsus me'yoriy hujjatlar yetishmaydi. Toshkent shahrining yangi general rejalarida bu masala qisman ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularga rioya qilish nazorati zaif.

Uchinchidan, Mulkchilik huquqi: Yer va uy-joy xususiy mulkka aylanganidan so'ng, egalar uni qayta qurish yoki sotish huquqiga ega bo'ldi. Bu yerlarning qimmatlashuvi bilan birgalikda, yirik quruvchilarga sotish yoki ko'p qavatli uy qurish uchun hovlini bo'lish istagini kuchaytirmoqda. Mahallani muhofaza qilish rejasi mavjud bo'lmaganda, mulk egalarining qarorlari majburiy emas.

To'rtinchidan, mahalliy himoya: "Mahalla" muassasasi mahalliy jamoatchilik muhofazasining potentsial mexanizmi bo'lishi mumkin. Ba'zi holatlarda mahalla raislari va faollari an'anaviy ko'rinishni saqlashga harakat qilmoqda, ammo ularning huquqiy vakolatlari cheklangan.

Ijtimoiy-falsafiy jihatlar bo'yicha natijalar:

1. Ma'naviy-madaniy makon: Intervyular shuni ko'rsatdiki, aholining 85% uchun hovli nafaqat turar-joy, balki oilaviy an'analar, xotiralar (meros uyi) va o'ziga xos hayot tarzining markazidir. Hovli ichidagi daraxtlar, ayvon, hovuz atrof-muhit bilan uyg'unlikni ifodalaydi.

2. Ijtimoiy uyg'unlik va qo'shnichilik munosabatlari: So'rovnoma natijalariga ko'ra, an'anaviy mahallalarda yashovchilarning 78% qo'shnilari bilan yaqin, o'zaro yordam munosabatlarini ta'kidladi. Bu nisbat yangi ko'p qavatli binolarda 45% ni tashkil etdi. Hovlilar ochiq hovli devorlari va darvozalari orqali jamoaviy va xususiy hayot o'rtasidagi nozik muvozanatni ta'minlaydi.

3. Barqarorlik va ekologik jihatlar: Hovlilar yashil maydonlarning katta qismini saqlaydi, shamollatishni yaxshilaydi va shahar issiqlik orol effektini kamaytiradi. Xususiy hovlilarda sabzavot yetishtirish an'anasi oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo'shadi.

4. Milliy o'zlikni anglash: Me'moriy uslub (ganch o'ymakorligi, yog'och naqshlar) va makonni tashkil etish (ichki hovli – dahon) o'zbek madaniyati va dunyoqarashining moddiy ko'rinishidir. Ularning yo'qolishi milliy me'moriy tilning bir qismini yo'qotish bilan baravar.

Muammolar: Asosiy muammolar: infratuzilmaning eskirganligi, yoshlarning zamonaviy sharoitlarga intilishi, moliyaviy qiyinchiliklar tufayli uylarni ta'mirlay olmaslik, ruxsatsiz va uslubdan tashqari qayta qurishlar, shahar hokimiyati tomonidan ushbu hududlarga nisbatan "rivojlanmagan" deb qarash.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hovlili uy-joy mahallalarini asrab qolish masalasi huquqiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarining murakkab o'zaro ta'sirini talab qiladi. Amaldagi qonunchilik, asosan, alohida obyektlarni himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, tarixiy shahar muhitini muhofaza qilishning zamonaviy dunoviy tamoyillari (masalan, ICOMOS qoidalari) bilan to'liq mos emas.

Huquqiy tizimni takomillashtirish zarurati: "Tarixiy shahar muhiti"ni yoki "madaniy landschaft"ni muhofaza qilish tushunchasini qonunga kiritish, bu muhitda yangi qurilish va rekonstruksiya uchun maxsus qoidalar ishlab chiqish kerak. Buning uchun muhofaza etish zonasi (tarixiy qiyofani saqlash) va regulatsiya zonasi (ushlab qolish, lekin zamonaviy talablarga moslashtirish) kabi gradatsiyani joriy etish samarali bo'lishi mumkin. Shuningdek, madaniy meros obyekti sifatida ro'yxatga olishni butun mahalla darajasida amalga oshirish imkoniyatini o'rganish lozim.

Ijtimoiy-falsafiy ahamiyatni tan olish: Davlat siyosati va shaharsozlik qarorlarida hovlili uy-joy mahallasini nafaqat "eski turar-joy fondi", balki o'ziga xos ijtimoiy-madaniy institut sifatida qabul qilish zarur. Bu makonlar shaharning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy kapitali va ekologik barqarorligini ta'minlaydi. O'zbek jamiyatining tayanchi bo'lgan oilaviy qadriyatlar va qo'shniçilik munosabatlari aynan shu makonlarda saqlanib kelmoqda.

Amaliy yechimlar: Mahallalarni tubdan buzmasdan modernizatsiya qilish (kultivatsiya) – zamonaviy kommunikatsiyalar va kommunal xizmatlarni joylashtirish, transport yechimlarini yaxshilash, jamoat maydonchalarini obodlashtirish, turar joylarni ichki ta'mirlashga davlat subsidiyalari yoki kreditlarini joriy etish. Jamoatchilik ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega: mahalla aholisi, mutaxassislar va hokimiyat vakillari ishtirokida muhofaza qilish va rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish.

Kelajakdagi izlanishlar: Ushbu tadqiqot asosida kelajakda iqtisodiy modellashtirish (muhofaza qilishning iqtisodiy samaradorligi), soliq imtiyozlari kabi rag'batlantiruvchi mexanizmlarni o'rganish, shuningdek, O'zbekistonning boshqa tarixiy shaharlaridagi (Buxoro, Xiva, Samarqand) tajribalarni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Toshkent viloyati va shahridagi hovlili uy-joy mahallalarini asrab qolishning huquqiy asoslari amaldagi qonunchilikda mavjud, ammo ular noaniq va yetarli emas. Tarixiy shahar muhitini muhofaza qilishning aniq mexanizmlari va me'yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqish zarur.

2. Ushbu mahallalarning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ularning nafaqat me'moriy, balki ma'naviy-madaniy va ijtimoiy makon sifatidagi rolida namoyon bo'ladi. Ular o'zbek milliy o'zligi, oilaviy an'analar va barqaror shahar atrof-muhitining moddiy ifodasidir.

3. Mahallalarni muvaffaqiyatli saqlab qolish uchun integratsiyalashgan yondashuv talab qilinadi: qonunchilikni takomillashtirish, jamoatchilikni keng jalb qilish, infratuzilmani sezgir modernizatsiya qilish, iqtisodiy rag‘batlantirish choralari ko‘rish.

4. Hovlilari uy-joy mahallalari – bu Toshkent shahrining tarixiy xotirasi va ruhi. Ularni asrab-avaylash nafaqat o‘tmishni, balki kelajakni ham – shaharning insonparvar, barqaror va o‘ziga xos ko‘rinishini saqlab qolish demakdir.

Amaliy takliflar:

1. Toshkent shahri va viloyati hokimliklariga: An’anaviy hovlilari uy-joylar massivlarini aniqlash va ular uchun maxsus muhofaza va rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish.

2. Qonun chiqaruvchi organlarga: “Tarixiy shahar muhiti”ni muhofaza qilishni tartibga soluvchi qonun chiqarishni ko‘rib chiqish.

3. Mahalla fuqarolari yig‘inlariga va NNTlarga: O‘z mahallasining tarixiy va madaniy qadr-qimmatini o‘rganish, hujjatlashtirish va uni saqlash bo‘yicha loyihalarni boshlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. “Katta Xirmontepa” va “Yakkatut” mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi nutq // 2017-yil 12-aprel. <https://president.uz/oz/lists/view/409>

2. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2014.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Arxitektura va shaharsozlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1996.

4. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent, 1998 (o‘zgartirishlar bilan).

5. Toshkent shahrini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. – Toshkent shahar hokimligi, 2020.

6. Milliy istiklol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, T., 2001. Qiyom Nazarov.

7. Б.Ахмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001; К.Шониязов. Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. – Ташкент: УСЭ, 1972

8. Баранов Н.Н. Современное градостроительство. – М.: Стройиздат, 1979.

9. Нора П. Места памяти. – М., 1999.

10. Хамраев М. Узбекская народная архитектура. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт, 2009.

11. ICOMOS Charter – Historic Towns and Urban Areas. – 1987.

12. Jacobs, J. The Death and Life of Great American Cities. – New York: Random House, 1961.

13. Lynch, K. The Image of the City. – MIT Press, 1960.